**Keywords:** e-commerce, e-commerce platforms, trade services market, digitalisation factors, B2B, B2C, C2C models, mobile commerce, fintech, digital economy.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida elektron savdo platformalari (ESP) iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Keng ma'noda "elektron savdo" (e-commerce) tushunchasi tovar va xizmatlarni internet tarmoqlari orqali xarid qilish va sotish jarayonlarini qamrab olsa, tor ma'noda esa onlayn platformalar vositasida savdo tranzaksiyalarini amalga

oshirishni anglatadi [1].

Bugungi kunda elektron savdo platformalari nafaqat savdo hajmini oshirish, balki iste'molchilarga qulay xizmat ko'rsatish, biznes jarayonlarini optimallashtirish, logistika samaradorligini ta'minlash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, mobil internet texnologiyalarining keng tarqalishi, elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi hamda fintech xizmatlarining ommalashuvi elektron savdo bozorining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni[1] elektron tijoratni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda telekommunikatsiya infratuzilmasining izchil rivojlantirilishi mamlakatda elektron savdo bozorining faol kengayishiga zamin yaratdi. Natijada 2019–2023-yillar davomida O'zbekiston elektron savdo bozori hajmi 5 barobardan ortiq o'sish sur'atini namoyish etdi [2].

Shu bilan birga, elektron savdo platformalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi texnologik, iqtisodiy, huquqiy-me'yoriy, ijtimoiy va logistika omillarini kompleks va tizimli tahlil qilish masalasi ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, ichki bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, aholining raqamli savodxonligi, internet xizmatlari sifati va to'lov tizimlarining integratsiyalashuv holati elektron savdo platformalarining samarali faoliyat yuritishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston savdo xizmatlari bozorida elektron savdo platformalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni kompleks tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston savdo xizmatlari bozori tanlangan bo'lsa, tadqiqot predmeti elektron savdo platformalarining rivojlanish omillari va ularning o'zaro ta'siri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

elektron savdo platformalarining rivojlanishiga oid nazariy yondashuvlarni o'rganish;

O'zbekiston elektron savdo bozorining hozirgi holati va rivojlanish dinamikasini tahlil qilish;

elektron savdo platformalari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflash va baholash;

elektron savdo platformalarining SWOT-tahlilini amalga oshirish;

elektron savdo bozori rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektron savdo platformalarini (ESP) tadqiq etish bo'yicha xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda elektron savdoning iqtisodiy samaradorlikni oshirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni chuqur tahlil qilingan.

Xususan, Kalakota va Whinston [3] elektron savdo platformalarini "elektron bozor infratuzilmasi" sifatida talqin qilib, ularni tovar va xizmatlar haqidagi axborot oqimlari, muzokaralar hamda tranzaksiyalarni amalga oshirish mexanizmlari asosida tasniflagan. Mualliflarning fikricha, ESP'lar zamonaviy iqtisodiyotda ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni samarali tashkil etuvchi muhim vosita hisoblanadi.

Turban va hammualliflar [4] tomonidan ishlab chiqilgan "Elektron tijorat: menejerial va ijtimoiy nuqtai nazar" konsepsiyasi elektron savdo platformalarining rivojlanish omillarini texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatlar kesimida o'rganish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi. Mazkur yondashuvda internet texnologiyalari, elektron to'lov tizimlari, logistika xizmatlari va iste'molchilar xulq-atvorining o'zgarishi elektron savdo rivojlanishining asosiy drayverlari sifatida ko'rsatilgan.

Raqamli iqtisodiyot nazariyotchilaridan biri hisoblangan Tapscott [5] o'zining "Raqamli iqtisodiyot" asarida elektron savdo platformalarining iqtisodiyotni transformatsiya qilishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar asosida shakllangan elektron bozorlar an'anaviy savdo mexanizmlarini tubdan o'zgartirib, yangi biznes modellarining paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Porterning [6] raqobat ustunligi nazariyasi elektron savdo platformalarining bozordagi raqobatbardoshligini baholashda keng qo'llaniladi. Mazkur nazariyaga ko'ra, platformalarning muvaffaqiyati ularning innovatsion salohiyati, xizmat sifati, logistika samaradorligi va mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalariga bevosita bog'liq hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida elektron savdo rivojlanishiga oid tadqiqotlarda Kravets va Kruglyak [7] ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular Qozog'iston, Ukraina hamda boshqa MDH davlatlari elektron savdo bozorlarini

1 https://lex.uz/docs/-5030957

tahlil qilib, infratuzilma va institutsional omillarning ustuvorligini ilmiy asoslab bergan. Tadqiqotchilar internet qamrovining kengayishi, raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini elektron savdo bozorining asosiy rivojlanish omillari sifatida qayd etgan.

O'zbekiston sharoitida Hamidov [8] va Umarov [9] tomonidan raqamli tijoratning rivojlanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy ishlarda mamlakatda elektron savdo bozorining shakllanish jarayonlari, internet infratuzilmasi, fintech xizmatlari hamda elektron to'lov tizimlarining rivojlanish istiqbollari yoritilgan.

Xalqaro E-Commerce Foundation [10] ma'lumotlariga ko'ra, global elektron savdo bozori hajmi 2023-yilda 5,82 trillion AQSh dollarini tashkil etib, jahon yalpi ichki mahsulotining 6,2 foiziga teng bo'lgan. Taqqoslash uchun, mazkur ko'rsatkich 2019-yilda 3,53 trillion dollar yoki jahon YAIMining 4,0 foizini tashkil etgan. Ushbu statistik ma'lumotlar elektron savdo platformalarining jahon iqtisodiyotidagi ulushi va ahamiyati izchil ortib borayotganini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda elektron savdo platformalarining rivojlanish omillarini kompleks baholash hamda ularning O'zbekiston savdo xizmatlari bozoriga ta'sirini aniqlash maqsadida bir qator zamonaviy ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan elektron savdo platformalari xalqaro elektron savdo platformalari bilan taqqoslandi. Shuningdek, mamlakatimiz elektron savdo bozorining asosiy ko'rsatkichlari MDH hamda Osiyo davlatlari tajribasi bilan solishtirilib, mavjud farqlar va rivojlanish tendensiyalari aniqlandi.

Statistik tahlil usuli yordamida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida 2015–2023-yillar davomidagi elektron savdo bozori rivojlanishining dinamik trend tahlili amalga oshirildi. Mazkur tahlil orqali elektron savdo hajmi, internet foydalanuvchilari soni, elektron to'lov tizimlari rivojlanishi va logistika xizmatlari ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalari baholandi.

Tadqiqotda SWOT-tahlil usulidan ham foydalanilib, O'zbekiston elektron savdo sektorining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari hamda potensial tahdidlari tizimli ravishda baholandi. Ushbu yondashuv elektron savdo platformalarining raqobatbardoshligini oshirish va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, omilli tahlil usuli asosida elektron savdo platformalari rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar guruhlarga ajratildi va ularning nisbiy ahamiyati baholandi. Mazkur jarayonda Delphi ekspert baholash metodidan foydalanilib, elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, logistika va fintech sohalarida faoliyat yurituvchi 24 nafar ekspertning fikr-mulohazalari umumlashtirildi.

Birlamchi ma'lumotlar 2023-yilning may–noyabr oylarida Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlarida o'tkazilgan so'rovnoma asosida shakllantirildi. Tadqiqotda jami 842 nafar respondent ishtirok etdi. So'rovnoma orqali aholining elektron savdoga bo'lgan munosabati, internet xizmatlaridan foydalanish darajasi, onlayn xarid qilish odatlari hamda elektron to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchi o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda jahon elektron savdo bozori barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Ayniqsa, 2019–2023-yillar oralig'ida global elektron tijorat sektori raqamli texnologiyalar, mobil internet xizmatlari va elektron to'lov tizimlarining keng rivojlanishi hisobiga sezilarli darajada kengaydi. COVID-19 pandemiyasi davrida (2020–2021-yillar) esa elektron savdo bozori rivojlanishi yanada jadallashdi. Karantin cheklovlari, an'anaviy savdo faoliyatining qisqarishi va masofaviy xizmatlarga bo'lgan talabning ortishi natijasida elektron savdo platformalaridan foydalanish keskin oshdi (1-jadval).

1-jadval
Jahon va O'zbekiston e-savdo bozorining asosiy ko'rsatkichlari (2019-2023)

| Ko'rsatkich | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|---|
| Jahon e-savdo hajmi (trln $) | 3,53 | 4,28 | 4,89 | 5,63 | 5,82 |
| O'sish sur'ati (%) | 17,9 | 21,3 | 14,3 | 15,1 | 3,4 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston e-savdo ($mln) | 185 | 320 | 487 | 712 | 950 |
| Mobil savdo ulushi (%) | 52,4 | 56,1 | 62,3 | 68,7 | 71,2 |
| B2B platformalar soni | 18 | 25 | 34 | 42 | 51 |

Manba: Xalqaro E-Commerce Foundation, O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi, 2024.

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda elektron savdo bozori 2019–2023-yillar davomida yuqori o‘sish sur’atlarini namoyon etgan. Xususan, elektron savdo hajmi 2019-yildagi 185 million AQSh dollaridan 2023-yilda 950 million AQSh dollariga yetib, qariyb 5,1 barobar oshgan. Ayniqsa, mobil savdo (m-commerce) segmentining ulushi sezilarli darajada oshgani kuzatiladi. Mazkur ko‘rsatkich 2019-yildagi 52,4 foizdan 2023-yilda 71,2 foizga yetgan. Bu esa aholining smartfonlardan foydalanish darajasi ortib borayotgani, mobil ilovalar orqali xarid qilish qulayliklari kengaygani hamda Click, Payme, Uzum Bank kabi mobil to‘lov xizmatlarining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir (2-jadval).

## 2-jadval
## O‘zbekistondagi yetakchi elektron savdo platformalari qiyosiy tahlili (2023)

| Platforma | Yo‘nalish | Ta’sis yili | Foydalanuvchi soni | Oylik tranzaksiya | O‘rtacha konversiya (%) | Baho |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Uzum Market | B2C | 2019 | 4,2 mln | 850 ming | 3,8 | A+ |
| OLX Uzbekistan | C2C/B2C | 2012 | 6,1 mln | 1,2 mln | 4,1 | A+ |
| Asaxiy.uz | B2C | 2019 | 2,8 mln | 420 ming | 3,5 | A |
| Korzinka.uz | B2C (FMCG) | 2020 | 1,5 mln | 310 ming | 5,2 | A |
| Zoodmall.uz | B2C/B2B | 2017 | 0,9 mln | 180 ming | 2,9 | B+ |
| Click.uz | To‘lov/Savdo | 2016 | 8,3 mln | 3,1 mln | 6,8 | A+ |

Manba: platformalarning rasmiy hisobotlari, muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda elektron savdo platformalari soni va ularning funksional imkoniyatlari so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaygan. Elektron savdo bozori tarkibida marketplace, onlayn chakana savdo, e’lon platformalari hamda elektron to‘lov tizimlari faol rivojlanayotgani kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatda raqamli iqtisodiyotning izchil shakllanib borayotganidan dalolat beradi.

Tahlillarga ko‘ra, Click.uz to‘lov tizimi eng yuqori konversiya ko‘rsatkichiga — 6,8 foizga ega bo‘lgan. Mazkur natija platformaning asosan elektron to‘lov xizmatlariga ixtisoslashgani, foydalanuvchilarga qulay va tezkor tranzaksiya imkoniyatlarini taqdim etayotgani bilan izohlanadi. Shuningdek, mobil ilova interfeysining soddaligi va fintech xizmatlarining keng integratsiyalashuvi ham foydalanuvchilar faolligini oshirishga xizmat qilgan.

OLX Uzbekistan esa foydalanuvchilar soni bo‘yicha yetakchi platforma sifatida qayd etilgan bo‘lib, ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni 6,1 million nafarga yetgan. Mazkur holat platformaning C2C modeli asosida keng ommalashgani, ikkilamchi bozorda savdo faoliyatining yuqori ekanligi hamda foydalanish qulayligi bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, mobil ilovalar va internet foydalanuvchilari sonining ortishi OLX Uzbekistan auditoriyasining kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan (3-jadval).

## 3-jadval
## O‘zbekiston ESP rivojlanishining asosiy omillari tasnifi

| **№** | **Omil turi** | **Asosiy ko‘rsatkichlar** | **O‘zbekiston kontekstidag ta’siri** |
|---|---|---|---|
| 1 | Texnologik omillar | Internet penetratsiya, mobil qurilmalar, bulutli hisoblash, sun’iy intellekt | Internet foydalanuvchilar 2023-yilga kelib 75%ga yetdi; smartfon penetratsiyasi 68% |
| 2 | Iqtisodiy omillar | YaIM o‘sishi, xarid qobiliyati, tovar muomalasi, investitsiyalar | YaIM 2023-yilda 5,9% o‘sdi; e-savdoga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 3 barobar oshdi |
| 3 | Huquqiy-me’yoriy omillar | Elektron tijorat qonuni, raqamli imzo, soliq rejimi, iste’molchini himoya qilish | “Elektron tijorat to‘g‘risida” Qonun (2015, 2023-tahrir) muhim asos bo‘ldi |
| 4 | Ijtimoiy omillar | Aholining yoshi, savodxonlik, onlayn xarid odati, ishonch darajasi | Aholi yoshi o‘rtacha 29,3; yosh avlodning 62% onlayn xarid qiladi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5 | Logistika omillari | Yetkazib berish infratuzilmasi, ombor tarmog‘i, qaytarish siyosati | Yetkazib berish vaqti 2019-yildagi 5 kundan 2023-yilda 1,8 kunga tushdi |
| 6 | To‘lov infratuzilmasi | Raqamli to‘lov tizimlari, bank qamrovi, fintech rivojlanishi | Click, Payme, UzCard raqamli to‘lovlar ulushini 41%dan 78%ga ko‘tardi |

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Quyidagi jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda elektron savdo bozori rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari — internet penetratsiyasi, elektron savdoning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda onlayn xaridorlar sonining 2015–2023-yillar oralig‘idagi o‘zgarish dinamikasini aks ettiradi (4-jadval).

### 4-jadval
### O‘zbekistonda e-savdo va raqamli infratuzilma rivojlanishi dinamikasi (2015-2023)

| Yil | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Internet foydalanuvchilar (%) | 38 | 43 | 49 | 55 | 61 | 66 | 70 | 73 | 75 |
| E-savdo ulushi (%) YaIMda | 0,4 | 0,7 | 1,0 | 1,4 | 1,9 | 2,8 | 3,5 | 4,1 | 5,2 |
| Onlayn (xaridorlar (mln | 0,8 | 1,2 | 1,9 | 2,8 | 3,6 | 5,1 | 7,2 | 9,8 | 12,4 |

Manba: Jahon banki, O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

4-jadval ma’lumotlari tahlili O‘zbekistonda elektron savdo bozori va raqamli infratuzilmaning so‘nggi yillarda yuqori sur’atlarda rivojlanganini ko‘rsatadi. Xususan, 2015–2023-yillar oralig‘ida internet foydalanuvchilari ulushi 38 foizdan 75 foizga yetib, qariyb ikki baravarga oshgan. Mazkur holat mamlakatda telekommunikatsiya infratuzilmasining kengayishi, mobil internet xizmatlari sifatining yaxshilanishi hamda smartfonlardan foydalanish darajasining ortishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, elektron savdoning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham sezilarli darajada oshgani kuzatiladi. Agar 2015-yilda ushbu ko‘rsatkich 0,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 5,2 foizga yetgan. Bu esa elektron savdo xizmatlarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini hamda raqamli iqtisodiyotning savdo sektoridagi transformatsiyasi jadallashayotganini ko‘rsatadi. Tahlillarga ko‘ra, mazkur ko‘rsatkichning 13 barobarga oshishi elektron tijorat infratuzilmasining rivojlanishi, elektron to‘lov tizimlari va logistika xizmatlarining takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Onlayn xaridorlar soni ham keskin o‘sish dinamikasini namoyon etgan. Jumladan, 2015-yildagi 800 ming nafar foydalanuvchi soni 2023-yilda 12,4 million nafarga yetgan (5-jadval).

### 5-jadval
### Mintaqaviy e-savdo ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlili (2023)

| Davlat | E-savdo o‘sishi 2023 (%) | Mobil savdo ulushi (%) | Internet penetratsiya (%) | B2B platf. ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|
| O‘zbekiston | 33,4 | 71,2 | 75,0 | 18,5 |
| Qozog‘iston | 28,7 | 68,4 | 82,3 | 22,1 |
| Rossiya | 21,2 | 65,1 | 88,9 | 31,4 |
| Xitoy | 14,5 | 79,6 | 77,5 | 45,2 |
| Turk | 26,8 | 72,3 | 83,7 | 19,8 |
| Hindiston | 31,5 | 74,8 | 64,2 | 16,3 |

Manba: UNCTAD E-Commerce Index, 2023.

5-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston elektron savdo bozorining o‘sish sur’atlari bo‘yicha Markaziy Osiyo va MDH mintaqasida yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Xususan, mamlakatda elektron savdo bozorining o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 33,4 foizni tashkil etib, bu ko‘rsatkich Qozog‘iston (28,7%), Rossiya (21,2%) hamda Xitoy (14,5%) kabi davlatlar natijalaridan yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda B2B (Business-to-Business) elektron savdo segmentining ulushi hozircha 18,5 foiz darajasida qolmoqda. Bu esa mazkur yo‘nalishda hali katta rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini

anglatadi (6-jadval).

6-jadval
O‘zbekiston e-savdo sektori SWOT-tahlili

| KUCHLI TOMONLAR (Strengths) | ZAIF TOMONLAR (Weaknesses) |
|---|---|
| Yosh va texnologiyaga moslashuvchan aholi<br>Tez o‘suvchi internet infratuzilmasi<br>Davlat tomonidan kuchli qo‘llab-quvvatlash<br>Mobil to‘lov tizimlarining keng tarqalishi<br>Arzon logistika xizmatlari | Logistika infratuzilmasining yetarli emasligi<br>Mahsulot sifati nazoratining zaifligi<br>Kiberxavfsizlik muammolari<br>Onlayn ishonchning pastligi<br>Texnik malakali kadrlarning yetishmasligi |
| IMKONIYATLAR (Opportunities) | TAHDIDLAR (Threats) |
| Markaziy Osiyo bozorlarida kengayish<br>Cross-border e-savdo rivojlanishi<br>AI va katta ma’lumotlar integratsiyasi<br>Rural bozorlarni qamrab olish<br>B2B platformalar rivojlanishi | Xalqaro raqobatchilarning kirib kelishi<br>Kiberjinoyatchilik xavfining ortishi<br>Huquqiy tartibga solish noaniqlig‘i<br>Iqtisodiy beqarorlik<br>Inflyatsiyaning xarid qobiliyatiga ta’siri |

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

SWOT-tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston elektron savdo sektori kuchli demografik salohiyat, internet foydalanuvchilari sonining jadal o‘sishi hamda davlat tomonidan raqamli iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash siyosati kabi muhim ustunliklarga ega. Delphi metodiga asoslangan ekspert baholashlari (n = 24) natijalari elektron savdo platformalari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning nisbiy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi. Ekspertlar fikriga ko‘ra, eng yuqori ta’sir ko‘rsatadigan omillar quyidagilar hisoblanadi (7-jadval).

7-jadval
ESP rivojlanish omillarining ekspert bahosi (Delphi metodi, n=24)[2]

| № | Omil | O‘rtacha ball (1-10) | Nisbiy og‘irlik (%) |
|---|---|---|---|
| 1 | Texnologik omillar | 8,7 | 21,5 |
| 2 | To‘lov infratuzilmasi | 8,4 | 20,8 |
| 3 | Iqtisodiy omillar | 7,9 | 19,6 |
| 4 | Logistika omillari | 7,6 | 18,8 |
| 5 | Huquqiy-me’yoriy omillar | 7,1 | 17,6 |
| 6 | Ijtimoiy omillar | 6,7 | 16,6 |
| Jami | | 46,4 | 100,0 |

7-jadval natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda elektron savdo platformalari rivojlanishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatorida texnologik infratuzilma va raqamli to‘lov tizimlari yetakchi o‘rinni egallaydi. Xususan, texnologik omillar ulushi 21,5 foizni tashkil etib, elektron savdo ekotizimining asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. To‘lov infratuzilmasi esa 20,8 foizlik ko‘rsatkich bilan ikkinchi eng muhim omil sifatida qayd etildi. Iqtisodiy omillar 19,6 foiz ulush bilan uchinchi o‘rinni egallagan bo‘lib, aholining daromad darajasi, iste’mol bozori hajmi, investitsion muhit va tadbirkorlik faolligi elektron savdo bozori rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston savdo xizmatlari bozorida elektron savdo platformalari (ESP) rivojlanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar natijasida texnologik, iqtisodiy, huquqiy-me’yoriy, ijtimoiy, logistika hamda to‘lov infratuzilmasi omillari ESP rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ekspert baholashlari natijalariga ko‘ra, texnologik omillar (21,5%) va to‘lov infratuzilmasi (20,8%) elektron savdo platformalari rivojlanishining eng muhim drayverlari sifatida baholandi.

Tadqiqot davomida O‘zbekiston elektron savdo bozori 2019–2023-yillar oralig‘ida 5,1 barobar o‘sgani

2 Muallif ishlanmasi

hamda mamlakat mintaqada elektron savdo o‘sish sur’atlari bo‘yicha yetakchi o‘rinlardan birini egallayotgani aniqlandi. Shu bilan birga, internet penetratsiyasi darajasi, logistika infratuzilmasining hududiy rivojlanishidagi tafovutlar va B2B platformalar ulushining nisbatan pastligi elektron savdo bozori oldidagi asosiy rivojlanish vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Tahlillar mobil savdo segmentining jadal rivojlanayotganini ham ko‘rsatdi. Mobil savdo ulushining 71,2 foizga yetgani, shuningdek, Click, Payme, UzCard kabi mahalliy elektron to‘lov tizimlarining keng ommalashuvi elektron savdo platformalarining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirmoqda. Mazkur holat mamlakatda fintech ekotizimi faol rivojlanayotganini tasdiqlaydi.

SWOT-tahlil natijalari esa logistika infratuzilmasi va kiberxavfsizlik bilan bog‘liq masalalar ESP rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy cheklovchi omillar ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, hududlar kesimida yetkazib berish tizimlarining notekis rivojlanganligi, elektron savdo xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.08.2017-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kunini nishonlash to‘g‘risida”gi PF-5136-sonli Farmoni, https://lex.uz/uz/docs/-3298590
2. Turban, E., King, D., Lee, J. K., Liang, T. P., & Turban, D. C. (2018). *Electronic Commerce 2018: A Managerial and Social Networks Perspective*. 9th ed. Springer. – 696 p.
3. Kalakota, R., & Whinston, A. B. (1997). *Electronic Commerce: A Manager’s Guide*. Addison-Wesley Professional. – 432 p.
4. Turban, E., Outland, J., King, D., Lee, J. K., Liang, T. P., & Turban, D. C. (2017). *Electronic Commerce 2018*. Springer.
5. Tapscott, D. (1995). *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill. – 342 p.
6. Porter, M. E. (2001). “Strategy and the Internet” // *Harvard Business Review*. – Vol. 79, No. 3. – P. 62–78.
7. Kravets, O., & Kruglyak, M. (2021). “E-commerce Market Development Trends in the CIS Countries” // *Business Perspectives*. – Vol. 19, No. 2. – P. 45–58.
8. Hamidov, A. (2022). “Elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari: O‘zbekiston tajribasi” // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – №5(3). – B. 112–124.
9. Umarov, B. (2023). “Raqamli iqtisodiyotda savdo platformalarini rivojlantirish masalalari” // *O‘zbekiston iqtisodiyoti* jurnali. – №7(1). – B. 88–97.
10. *Global E-commerce Report 2024*. (2024). Amsterdam: E-Commerce Foundation.
11. UNCTAD. (2023). *Digital Economy Report: Entrepreneurship and Inclusiveness in Digital Development*. New York: United Nations Publications.
12. Jahon banki. (2024). *Doing Business in the Digital Economy: Central Asia Perspective*. Washington D.C.: World Bank Group.
13. Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2024). *O‘zbekistonda axborot texnologiyalari sohasining rivojlanishi: 2023-yil yakunlari*. – Toshkent.
14. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). *O‘zbekiston raqamlarda – 2023*. – Toshkent: O‘zStat.
15. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2021). *E-commerce 2021: Business, Technology, Society*. 17th ed. Pearson.

muhandislik
& iqtisodiyot
*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. May. № 5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100